

Bajarilishi bir yilga mo'ljallangan innovatsion loyihalar mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi		
№	Innovatsion loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Chekka hududlarda istiqomat qiluvchi yolg'iz keksalar va yolg'iz nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olishning alternativ yondashuvlarini ishlab chiqish 	Tadqiqotning shakli: Innovatsion. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - keksalardagi yolg'izlik va umr davomiyligi o'rtasida korrelyatsion bog'liqlik mavjudligi o'rganiladi; - tadqiqot doirasida yolg'iz keksalar axborot tizimini tahlil qilish, ularga xizmat ko'rsatgan ijtimoiy xodim assistentlaridan ularning turmush darajasi va xususiyatlari haqida so'rov o'tkaziladi; - yolg'iz keksalar umr davomiyligiga ta'sir qiluvchi omillar o'rganiladi; - dunyoning boshqa mamlakatlarida yolg'iz keksalarning hayot sifatiga ta'sir qiluvchi omillar va ijtimoiy himoya tizimi orqali ularni yaxshilashga qaratilgan choralarni adabiyot tahlili asosida o'rganiladi; - O'zbekiston yolg'iz keksalari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda umr davomiyligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar asosida konseptual asoslari yaratiladi; - chekka hududlarda istiqomat qiluvchi yolg'iz keksalar va yolg'iz nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olishning alternativ yondashuvlari ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Ijtimoiy himoya agentligida tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Ijtimoiy himoya milliy agentligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.